

## ASRLARNI BO‘YLAGAN ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR: BUYUK IMPERIYA YARATUVCHISI SIFATIDA BOSIB O‘TGAN YO‘LI

**Rustamjon Jumayev**

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Tarix yo‘nalishi III bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10656410>

**Annotatsiya.** Ushbu maqola buyuk shahanshoh mumtoz shoir, nazariyotchi adabiyotshunos, tarixchi, faqih, tilshunos, san‘atshunos, etnograf, hayvonot va nabotot olamining bilimdoni sifatida ko‘pqirrali faoliyat va ijod sohibi, dunyoga mashhur shoh asar muallifi–Zahiriddin Muhammad Bobur haqida bo‘lib, uning buyuk imperiya yaratish yo‘lida shohlarga xos mag‘lubiyatlarning achchiq alamlari-yu zafarlarning ulug‘vor nashidalarini surishi, shuningdek, uning Afg‘oniston va Hindistonda amalga oshirgan bunyodkorlik ishlari haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** Bobur, Movarounnahr, Temuriylar, navkar, Kobul, fotih, Xuroson, Shayboniy, Hirot, Hindiston, faqih, Panjob, qoon, buyuk mo‘g‘ullar, imperiya, Dehli, Rano sango, Lohur, Mevar, boburiy mirzolar, suiqast.

### ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR, WHO PAINTED THROUGH THE CENTURIES: THE PATH HE TRAVELED AS THE CREATOR OF A GREAT EMPIRE

**Abstract.** This article is about Zahiriddin Muhammad Babur, the great emperor, classical poet, theoretician, literary critic, historian, jurist, linguist, art critic, ethnographer, multifaceted activity and creativity, world-famous author of the royal works. it talks about his bitter pains of defeats and the glorious triumphs of kings on the way to creating a great empire, as well as his creative works in Afghanistan and India.

**Key words:** Babur, Mowarunnahr, Timurids, soldier, Kabul, conqueror, Khurasan, Shaybani, Herat, India, jurist, Punjab, Khan, great Mongols, empire, Delhi, Rano sango, Lahore, Mewar, Babur mirzas, assassination.

### ЗАХИРИДДИН МУХАММАД БАБУР, НАРИСОВАННЫЙ НА ВЕКАХ: ПУТЬ, ПРОЙДЕННЫЙ ОН КАК СОЗДАТЕЛЬ ВЕЛИКОЙ ИМПЕРИИ

**Аннотация.** В статье рассказывается о Захириддине Мухаммаде Бабуре, великом императоре, поэте-классике, теоретике, литературном критике, историке, юристе, лингвисте, искусствоведе, этнографе, многогранной деятельности и творчестве, всемирно известном авторе царских сочинений, о боли поражений и славные триумфы на пути к созданию великой империи, а также его творчество в Афганистане и Индии.

**Ключевые слова:** Бабур, Моваруннахр, Тимуриды, Навкар, Кабул, завоеватель, Хорасан, Шайбани, Герат, Индия, юрист, Пенджаб, кон, великие монголы, империя, Дели, Рано Санго, Лахор, Мевар, бабуриды, убийство.

Bobur ya‘ni “Sher” taxallusi bilan tanilgan, to‘liq ismi Zahiriddin Muhammad ibn Umarshayx Mirzo. Dastlab Boburning shaxsiyatiga to‘xtalsak, u 1483-yil 14-fevral kuni Andijonda tavallud topdi. O‘zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili, buyuk shoir, tarixchi, geograf, davlat arbobi, iste‘dodli sarkarda, temuriy shaxzoda, buyuk Boburiylar imperiyasi asoschisi hisoblanadi. Bobur yoshligidan ilmga chanqoq bo‘lib o‘sdi va yirik fozilu ulamolar

ustozligida harbiy ta'lim, fiqh ilmi, arab va fors tillarini o'rgandi, she'riyatga qiziqishi ham aynan shu davrlardan boshlangan edi. Dovyurakligi va jasurligi uchun "Bobur" ("She'r") laqabini oladi.<sup>1</sup>

Boburning Movarounnahrni tark etishi haqida gapirar ekanmiz, u Temuriylar saltanatini himoya qilish va uni saqlab qolish uchun astoydil harakat qilib, Shayboniyxonga qarshi bir necha yil davomida mutaasil kurash olib borsa-da, ammo mamlakatda hukm surgan og'ir iqtisodiy tanglik va siyosiy parokandalik sharoitida maqsadiga erisha olmaydi. 1503-yil Toshkent xoni Mahmudxon, Bobur va qalmoqlarning birlashgan qo'shini Shayboniyxon tomonidan Sirdaryo bo'yida tormor qilinadi. Bobur Samarqand taxti uchun kurashayotgan paytda Andijonni Sulton Ahmad Tanbal egallab oladi. 1501–1504-yillarda Bobur Farg'ona mulkini qaytarib olish uchun Sulton Ahmad Tanbal, Jahongir mirzolariga qarshi olib borgan kurashi muvaffaqiyatsizlik bilan tugaydi. Temuriylarning to'xtovsiz janglari va og'ir soliqlaridan toliqqan xalq Boburni qo'llamadi va u Movarounnahrni tark etishga (1504-yil iyun) majbur bo'ladi. Shundan so'ng Bobur 200-300 kishilik navkari bilan Hisor tog'lari orqali Afg'onistonga o'tadi va u yerdagi ichki nizolardan foydalanib G'azni va Kobulni egallaydi. Bobur Kobulni egallagach, mustaqil davlat tuzishga jadal kirishadi, qo'shinni tartibga keltiradi, qattiq ichki intizom o'rnatadi. Kobulga, umuman Afg'onistonga Bobur o'z yurti kabi qaradi, qurilish, obodonlashtirish, kasbu hunar va qishloq xo'jaligini rivojlantirish ishlarini boshlab yuboradi. „Bog'i Shaxroro“, „Bog'i Jahonoro“, „O'rtabog'“, „Bog'i vafo“ va „Bog'i Bobur“ kabi oromgohlar tashkil etdi. Yangi imoratlar qurdirdi va oilasi bilan shu qal'ada yashadi. Uning Humoyun, Komron va Hindol ismli farzandlari shu yerda tug'iladi

Bobur Afg'onistonda bir fotih sifatida emas, balki shu el-yurt obodonligi va ravnaqi uchun jon kuydirgan tadbirli hukmdor sifatida qizg'in faoliyat ko'rsatdi, u xalq va mamlakat manfaatlari yo'lida odilona va oqilona ish tutdi. Afg'onistondagi amaliy faoliyatiga ko'ra, Bobur butun Xuroson va Movarounnahrda qudratli davlat boshlig'i va muzaffar sarkarda sifatida katta obro' orttirib bordi, mintaqadagi siyosiy hayot yuqori o'ringa ko'tarildi. Shayboniylarning tobora kuchayib borayotgan yurishiga qarshi birgalikda chora ko'rish masalasida Sulton Husayn Boyqaro barcha temuriy hukmdorlar qatorida Boburni ham maslahat yig'iniga maxsus taklif etishi ana shunday yuksak nufuzni ko'rsatuvchi dalildir. Bobur shu taklif bo'yicha Hirotga o'tlanadi. Husayn Boyqaroning to'satdan vafot etishiga (1506-yil) qaramay, u Hirotga boradi va temuriy hukmdorlar bilan uchrashib muzokaralar o'tkazadi. Temuriy hukmdorlarning birlashib Shayboniyxon qo'shinlariga to'siq qo'yish rejaları amalga oshmaydi va tez orada birin-ketin mag'lubiyatga uchrab, saltanatni batamom qo'ldan chiqaradilar.

Bobur Movarounnahr va Xurosondagi siyosiy vaziyat va urush harakatlarini kuzatib boradi, o'z qo'shinlarini doimo shay tutadi. Shayboniyxon Xurosonning yirik markazlarini qo'lga kiritgach, Eronni zabt etish uchun yurish boshlaydi, ammo Eron shohi Ismoil Safaviy bilan qattiq to'qnashuvda (1510-yil) yengiladi, o'zi ham Marvda halok bo'ladi. Shoh Ismoil Xuroson va Movarounnahrda qo'shin kiritib shayboniylarga ketma-ket zarar yetkaza boshlaydi. Bobur shoh Ismoil bilan harbiy-siyosiy ittifoq tuzib, 1511-yil bahorida Hisorni yozida Buxoroni oktabr boshlarida esa Samarqandni yana qo'lga kiritadi. Boburning shia yo'nalishidagi eroniylar ra'yi

<sup>1</sup> "O'ZBEKISTON MILLIY ENSIKLOPEDIYASI", II QISM, DAVLAT ILMIY NASHRIYOTI TOSHKENT 2001. 83-bet

bilan ish tutishi aholida norozilik tugʻdiradi. 1512-yil 28-aprelda “Koʻli malik” jangida Ubaydulla Sulton boshliq shayboniylardan yengilgan Bobur Hisor tomon ketadi. 1512-yil kuzida Bobur Shoh Ismoil yuborgan Najmi Soniy laqabli lashkarboshi bilan Balxda uchrashib, Amudaryodan kechib oʻtib, avval Gʻuzor qalʼasini oladi, soʻng Qarshiga yurish qiladi, shahar uzoq muddatli qamaldan soʻng taslim boʻladi, shahar himoyachilari qattiq jazolanadi. 1512-yil 24-noyabrda “Gʻijduvon” jangida Bobur shayboniylardan yana yengilib, Kobulga qaytishga majbur boʻladi. Bobur Movarounnahrni egallash ilinjidan uzil-kesil umidini uzadi va butun eʼtiborini Hindistonga qaratadi. Bobur va Shayboniylar oʻrtasidagi dushmanlik surunkali boʻlganmi degan savolga quyidagicha javob berish mumkin: Temuriylar hamda shayboniylarning qarindoshligi va quda-andachiligi masalasida koʻplab misollar keltirish mumkin. Lekin 1512-yil Movarounnahrda shayboniylar hukmronligi uzil kesil oʻrnatilib, Boburning bu hududdagi ilinji butkul uzilgach, Bobur va boburiylar hamda shayboniylar oʻrtasidagi diplomatik munosabatlar uzilib qolmadi.

Bobur Hindistonni egallab, imperiya poydevorini barpo etgach, Movarounnahr bilan keng koʻlamli aloqalarni yoʻlga qoʻydi. Oʻz fel-atvoriga mos ravishda shayboniy sultonlarga nisbatan koʻnglida hech qanday kek saqlamadi.

Bobur Hindistonni egallash yoʻlida dastlab, 1507-yil boshlarida u yerga yurish boshlaydi, muvaffaqiyatsizlik bilan tugagan bu urinishdan soʻng 5-6 yil davomida bir necha yurishlar uyushtiradi. 1517-yildan boshlab Dehli sultonligida ichki nizolar avj olib, sultonlik inqirozga yuz tutadi, mahalliy hokimlar markaziy hukumatga boʻysunmay qoʻyadi. Lohurda davlatxon, Dehlida Ibrohim Loʻdiy, Mevarda Rano Sango mustaqillik eʼlon qiladilar. Bobur bundan foydalanib 1519 va 1524 yillari katta oʻljalar olib qaytadi. 1525-yil Rano Sango oʻz raqibi Ibrohim Loʻdiyning yengish va shu tariqa Shimoliy Hindistonni qoʻlga kiritish maqsadida Bobur bilan ittifoq tuzdi. Bobur yana Hindistonga yurib, 1525-yil kech kuzida Panjobni boʻysindirdi. 1526-yilning aprel oyida esa Panipat yonida boʻlgan jangda Ibrohim Loʻdiyning yengib, Agra va Dehlini egalladi. Bobur ilgari fotihlar (Amir Temur, Mahmud Gʻaznaviy) singari Hindistonni tashlab chiqmay, shu yerda qolishga qaror qiladi. U 1527-yilning mart oyida Sikri yonida boʻlgan jangda Rano Sangoni ham yengib, butun Shimoliy Hindistonni boʻysundirdi. Boburiylar sulolasi Hindistonda 1526-1858-yillar davomida hukmronlik qilgan. Boburiylarning asoschisi Temuriylardan Zahiriddin Muhammad Bobur boʻlib chet ellarda, mamlakatimizda, hatto Hindistonda ham Boburni va uning avlodlarini “buyuk moʻgʻullar” deb atash odat boʻlib qolgan. Ushbu ibora Chingizxon va undan keying moʻgʻul qoonlariga taaluqli boʻlib, Boburiylar aslida bobur avlodlaridir. Ular tarixiy hujjatlarda oʻzlarini “boburiy mirzolar” deb yuritishgan. V.Bartold dunyoga tarqalgan “buyuk moʻgʻullar” iborasining xato ekanligini koʻrsatib, “Yevropaliklar Temurni va uning oʻgʻillari hamda nabiralarini moʻgʻullardan tarqalgan deb hisoblab, Bobur saltanati uchun “buyuk moʻgʻullar” degan nom toʻqidilar”, deb yozadi. Bu ibora esa Yevropadan Hindistonga “koʻchib kelib, hindlar orasiga inglizcha kitoblar vositasi bilan tarqalgandir. Soʻngi yillarda “buyuk moʻgʻullar” degan xato ibora oʻrniga “boburiylar” iborasi qoʻllanila boshladiki, bu ibora tarixiy haqiqatni toʻgʻri aks ettiradi. Boburiylar Hindistonda 332 yil hukmronlik qildi. Boburiylar sulolasini oʻz vaqtida quyidagi vakillar boshqardi: Zahiriddin Muhammad Bobur, Humoyun, Akbar, Jahongirshoh, Shoh Jahon, Avrangzeb Olamgir, Bahodirshoh I, Jahondorshoh, Olamgir II,

Shoh Olam II, va soʻngi hukmdor Bahodirshoh II.<sup>2</sup> Hindiston zabt etilgandan soʻng uni boshqarish har jabhada oson kechmagan xususan, Boburga bir necha bor suiqaast uyushtirilgan. Ulardan biri haqida “Boburnomada” hikoya qilingan: “Bu oqshom gʻarib voqea dast berdi. Kechaning uch posiga yovuq kema-da suron va gʻavgʻo chiqdi. Chufapar(dak) har kim kemanding bir yigochini olib “Ur-ur” deb qichqirishadurlar. “Farmoyish” kemasini taqya qilgon (chiqqan) “Osoyish” kemasining yonida edi. Bir tunqator (tungi soqchi) anda edi, uyqudin koʻz ochib koʻrarkim, bir kishi “Osoyish” kemasiga iliq quyib chiqar hayolidadur. Ustiga tashlar: suvga chumib, chiqarida tunqator (u)ning boshiga chopar: ozroqcha zaxm qilib edi, suv sari uq-qochar. Gʻavgʻo bu jihattin ekandur. ... Tangri taolo saxladi” (3716, 372a). Bobur bu voqea munosabati bilan Saʼdiy sheroziyning “Agar olam tigʻi oʻz gʻilofidan qoʻzgʻalsa, Alloh xohlamasa biror tomirni ham qirqmaydi” mazmunidagi baytini keltirgan, hamda shu singari suiqaasdga urinish avval ham boʻlganini eslab oʻtgan.<sup>3</sup>

Bobur 1530-yil 26-dekabrda vafot etdi. U oʻzi fath etgan mamlakatlarni betob kunlari oʻgʻillariga: Hindistonni toʻngʻich oʻgʻli humoyunga, Panjobni Komron Mirzoga, Kobul va qandahorni Askariy Mirzoga, Badaxshonni Hinbol Mirzoga taqsimlab berdi.<sup>4</sup>

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki Bobur birinchi navbatda shahanshoh, boburiylar sulolasining asoschisi. Uilyam Rashbruk iborasi bilan aytganda: “Oʻn oltinchi asr imperiya bunyodkori”dir. Balki boburiylar jahon tarixida eng uzoq yillar (332 yil) hukmronlik qilgan sulola boʻlib chiqar... U shahanshoh sifatida Lashkar tortib shohlarga xos magʻlubiyatlarning achchiq alamlari-yu zafarlarning ulugʻvor nashidalarini surishni koʻp marotaba boshidan kechirdi. Otasi singari ulugʻ himmatli va oliy maqsadli shaxs boʻlganligidan Fargʻona viloyatini kichik joy deb hisoblab, Samarqandga intildi. U yerda Shayboniyxondan yengilib, Kobulga keldi, va keyin Hindistondek bepoyon yirik mamlakat hukmdoriga aylandi.<sup>5</sup>

Boburning Hindiston ravnaqi uchun qoʻshgan hissasi ham tahsinga sazovor edi. U bu diyorda ham, xuddi Afgʻonistonda boʻlganidek, koʻplab ijtimoiy xayrli ishlarni amalga oshirdi, mamlakat taraqqiyotiga ijobiy taʼsir koʻrsatdi. Tarqoqlik va parokandalikka, oʻzaro ichki nizo, qirgʻinlarga barham berib, viloyatlarni birlashtirdi, markazlashgan davlatni mustahkamlash va yurtni obodonlashtirishga, ilmu hunar va dehqonchilikni rivojlantirishga katta eʼtibor qaratdi. Qurilish ishlariga boshchilik qildi. Oʻzga yurtdan kelgan podshoh boʻlishiga qaramasdan, mamlakatni chin maʼnoda rivojlanish choʻqqisiga olib chiqdi. Butun jahonda eng uzoq umr koʻrgan imperiyalardan birining yaratuvchisi sifatida tarixda qoldi.

## REFERENCES

1. “OʻZBEKISTON MILLIY ENSIKLOPEDIYASI”, II QISM, DAVLAT ILMIY NASHRIYOTI TOSHKENT 2001. 83-bet

<sup>2</sup> “OʻZBEKISTON MILLIY ENSIKLOPEDIYASI”, II QISM, DAVLAT ILMIY NASHRIYOTI TOSHKENT 2001. 88-bet

<sup>3</sup> “ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR ENSIKLOPEDIYASI”, «SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA AKSIYADORLIK KOMPANIYASI BOSH TAHRIRIYATI TOSHKENT-2014, 461-bet

<sup>4</sup> “OʻZBEKISTON MILLIY ENSIKLOPEDIYASI”, II QISM, DAVLAT ILMIY NASHRIYOTI TOSHKENT 2001. 89-bet

<sup>5</sup> “BOBURNOMA” ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR, (Xozirgi oʻzbek tilidagi tabdili), V.Rahmonov va K.Mullaxoʻjayeva (oʻzb.tab.),”Oʻzbekiston” NMIU, 2019,2023

2. “ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR ENSIKLOPEDIYASI”, «SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA AKSIYADORLIK KOMPANIYASI BOSH TAHRIRIYATI TOSHKENT-2014, 461-bet
3. “BOBURNOMA” ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR, (Xozirgi o‘zbek tilidagi tabdili), V.Rahmonov va K.Mullaxo‘jayeva (o‘zb.tab.),”O‘zbekiston” NMIU, 2019,2023
4. Shahlo-Ilhomovna, M. (2021). On The Basis Of An Integrated Approach, Give Environmental Education To Primary School Students. *The American Journal of Applied sciences*, 3(06), 65-69.
5. Jiyanmuratova, G. S. (2019). ELECTORAL MOOD OF THE YOUTH ELECTORATE OF UZBEKISTAN. In *ОСОБЕННОСТИ ИННОВАЦИОННОГО ЭТАПА РАЗВИТИЯ МИРОВОЙ НАУКИ* (pp. 7-9).
6. Dzhianmuratova, G. (2023). Factors Determining the Behavior of Young Voters. *Information Horizons: American Journal of Library and Information Science Innovation* (2993-2777), 1(10), 96-100.